


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**70530203 -Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish  
metodikasi (geografiya) magistratura  
mutaxassisligining  
MALAKA TALABI**

Toshkent-2024



**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**  
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil « 1 » 08 dagi 277- sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda  
Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar ta’lim vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

<b>T/r</b>		<b>bet</b>
<b>1.</b>	<b>Umumiy tavsifi .....</b>	<b>4</b>
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.....	5
1.2.1.	Kasbiy faoliyatning sohalari.....	5
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarning turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalar.....	5
<b>2.</b>	<b>Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar.....</b>	<b>9</b>
<b>3.</b>	<b>Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....</b>	<b>10</b>
<b>4.</b>	<b>Fanlar katalogining tuzilishi.....</b>	<b>11</b>
	<b>Bibliografik ma'lumotlar.....</b>	<b>12</b>
	<b>Kelishuv varag'i .....</b>	<b>13</b>

## **1. Umumiy tavsifi**

Mazkur Malaka talabi o'qituvchilar va talabalar uchun fanni o'qitish va o'rganishni yaxshilaydigan yuqori sifatli, qulay, yangiliklarga ta'sirchan va talabalarga yo'naltirilgan, amaliy fanlar bo'yicha magistrlik darajasini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu Malaka talabi ilmiy izlanish ko'nikmalarini, shuningdek, fanni o'rganishning qiziquvchanlik, yangi g'oyalarga ochiqlik kabi xususiyatlarini rivojlantiradi va modellashtiradi. Talabalar ta'lim standartlarining so'nggi avlodi bilan integratsiya qilish uchun innovatsion strategiyalar, shuningdek, talabalar fanni qanday o'rganishi bo'yicha eng so'nggi tadqiqotlar haqida bilib oladilar.

70530203- Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (geografiya) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Magistraturada o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil. Magistratura o'quv dasturining hajmi ta'lim shakli (kunduzgi), foydalaniladigan ta'lim texnologiyalaridan qat'iy nazar 120 kredit birligini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF-81-son Farmoniga ko'ra 70530203- Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (geografiya) mutaxassisligi magistraturasida o'qish uchun kamida B1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat talab etiladi.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi**

Mazkur Malaka talab 70530203- Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (geografiya) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash o'quv reja va fan dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha pedagogika sohasida kadr tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

70530203- Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (geografiya) mutaxassisligi bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim muassasalarining professor - o'qituvchilari;

mutaxassislikning o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi talabalari;

o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya va imtihon komissiyalari;

oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

mutaxassislikni ixtiyoriy tanlash huquqiga hamda bakalavriat darajasiga ega bo'lgan abituriyentlar va boshqa manfaatdorlar.

## **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tasnifi**

### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:**

umumiy oʻrta taʼlim maktab oʻqituvchisi kasb standartiga muvofiq umumiy oʻrta taʼlimda geografiya fani oʻqituvchisi maqomida pedagogik faoliyat olib borish;  
oʻrta maxsus va professional taʼlimda geografiya fani oʻqituvchisi sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

oliy taʼlimda geografiya fani oʻqituvchisi sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

qayta tayyorlash, malaka oshirish boʻyicha taʼlim muassasalarida geografiya fani oʻqituvchisi sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

Oʻzbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shugʻullanish;

umumiy oʻrta taʼlim maktabi direktori kasb standartiga muvofiq taʼlim muassasasini boshqarish kabi kompleks masalalarni majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

Oliy taʼlim, malaka oshirish va qayta tayyorlash, professional taʼlim, oʻrta maxsus, davlat va nodavlat umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlari;

maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi tizimidagi idoralar;

Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari;

davlat boshqaruv organlari;

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish tashkilotlari;

tabiiy resurslarni baholash, davlat kadastrlarini yuritish va ulardan foydalanish tashkilotlari;

qishloq va suv xoʻjaligi vazirligi tizimidagi tashkilotlar;

rekreatsiya va turizmni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan tashkilotlar;

geoaxborot tizimlari va geofazoviy tahlil, kartografiya sohalari bilan bogʻliq ilmiy tadqiqot institutlari, korxonalar va tashkilotlar;

hududlarni kompleks tahlil qilish, rivojlantirish hamda tabiatdan foydalanish reja va loyihalarni ishlab chiqish tashkilotlari;

turli mulkchilik shaklidagi ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish korxonalari.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

pedagogik;

ilmiy-tadqiqot;

maʼnaviy-maʼrifiy;

tashkiliy-boshqaruv;

Mutaxassislik boʻyicha tayyorlangan magistrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari taʼlim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy taʼlim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari**

70530203-Aniq va tabiiy fanlarni oʻqitish metodikasi (geografiya) mutaxassisligi boʻyicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda

magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Pedagogik faoliyatida:**

o'quv jarayonini rejalashtirish- DTS va O'D larining maqsadlariga muvofiq o'quv reja ishlab chiqish, talabalarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturlarini moslashtirish, fanlarni korrelyatsiya va integratsiya tamoyillariga ko'ra rejalashtirish, darsning aniq maqsad va natijalariga ko'ra dars rejasini ishlab chiqish, differensial yondashuv asosida dars shakllari va usullarini rejalashtirish, o'quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirish;

ta'lim samaradorligini ta'minlash-dars maqsadlariga ko'ra talabalar imkoniyatidan kelib chiqib vazifalarni belgilash, dars mavzusiga mos namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish, darsda vaqt taqsimotini to'g'ri rejalashtirish, ta'lim jarayonida AKTdan unumli foydalanish, talabalarning o'zlashtirish natijalariga ko'ra darsni tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish, talabalarning ta'limiy maqsadlariga mos keladigan o'qitish usullari va yondashuvlarni tanlash, o'qitishning faol usullaridan foydalanish, talabalarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan usullardan foydalanish, talabalarning jamoaviy va loyihaviy ishlarini tashkil etish, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalaridan foydalanish, talabalarga differensial yordam berish, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, talabalarni mustaqil fikrlash imkoniyatini yaratish, darsda motivatsiyaga erishish, auditoriyada samarali muloqotga erishish;

o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish-ta'lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini tahlil qilish, dars rejasi va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish, baholash mezonlarini bilishi va amalda qo'llay olishi, mavjud muammolarni aniqlay olishi va tahlil qilish;

tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish- tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, interaktiv shakl va usullarini mashg'ulot hamda auditoriyadan tashqari ishlarda qo'llash, tarbiyaviy ishlarda talabalarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga olishi, ta'lim muassasasining ustavi va ichki tartib qoidalariga muvofiq talabalar uchun aniq odob-axloq qoidalarini o'rnatish, ijtimoiy sog'lom muhitni yarata olish, talabalarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish;

xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash-talabalar orasida o'zaro hurmat muhitini yaratish, talabalarga auditoriya hayotida teng imkoniyatlar yaratish, nizoli vaziyatlarda optimal yechimli qaror chiqara olishi, talabalar bilan individual ishlar olib borishi, zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishlashga yordam bera olish;

o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish- muntazam malaka oshirish kurslaridan o'tish, fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash, kasbiy faoliyat yuzasidan seminar va treninglarda ishtirok etish hamda tashkil etish, o'zaro darslarda qatnashish, darslarni tahlil qilish, ochiq darslar

o'tkazish, kasbiy faoliyatda kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish;

fanning zamonaviy yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o'quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;

ta'lim oluvchi shaxsining har tomonlama rivojlantirish jarayonini motivatsiyalash va faollashtirish, o'quv-tarbiyaviy faoliyatini barcha bosqichlarining mantiqiyligi va emotsionalligiga erishish, didaktik vositalardan samarali foydalanish; zarur bilim, ko'nikma va malakalar, fikrlash va faoliyatning ratsional usullarini shakllantirish, mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish, bir darsni tahlil etish, prognozlash va puxta loyihalashtirish;

har bir darsning ta'limiy vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish va o'zlashtirishning eng yangi texnologiyalarini qo'llash, turli xildagi shakl, metod va vositalardan mos ravishda foydalanish;

jamoaviy faoliyat usullari bilan birga ta'lim oluvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil etishning turli shakllaridan foydalanish, tezkor qayta aloqani ta'minlash, nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, darsni mahorat bilan o'tkazishni ta'minlash;

ta'lim oluvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash. ularda yuksak ma'naviy-axlokiy fazilatlar (vatanparvarlik, tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, tolerantlik va boshqalar)ni shakllantirish;

pedagogik odob talablariga amal qilish, ta'lim oluvchilar bilan hamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo'lish;

ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish faoliyatiga doir ijobiy sifatlar, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollikni shakllantirish hamda rivojlantirish;

ta'lim oluvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga olish, "rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish", "o'zib ketish" darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish;

ta'lim oluvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida ta'lim-tarbiya shakl, metod va vositalarini hamda ta'lim texnologiyalarini oqilona tanlash va samarali qo'llash;

ta'lim oluvchilarning o'zlashtirilayotgan o'quv dasturlari bilan bog'liqlikdagi bilish imkoniyatlari, ehtiyojlari va muvaffaqiyatlarini o'rganish va olingan natijalar asosida ta'lim, tarbiya va rivojlanishning individual yo'nalishlarini loyihalashtirish;

ta'lim va tarbiya jarayonini ta'lim oluvchilarning yosh hamda psixofiziologik xususiyatlariga, shu jumladan ularning ta'limiy ehtiyojlariga mos keluvchi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish;

pedagogik jamoa, ota-onalar, davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni tashkil etish;

kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirish

pedagoglarning kasbiy ehtiyojlari, imkoniyatlarini o'rganish va tahlil qilish hamda olingan natijalar asosida individual metodik qo'llab-quvvatlash tizimini loyihalashtirish;

pedagoglarning hamkorlikdagi metodik faoliyati natijalarini amalda

qo'llanishini tadqiq etish, tashkil etish va baholash;  
ta'limiy dasturlarni va ta'lim oluvchilarning individualligini rivojlantirish yo'llarini loyihalashtirish;  
o'quv fanlari mazmuni, nazorat shakl va metodlarini hamda didaktik materiallarini loyihalashtirish;  
o'qitish jarayoni sifatini ta'minlovchi ta'limiy muhitni loyihalashtirish;  
kelgusidagi pedagogik faoliyatni loyihalashtirish *malakalariga ega bo'lishi kerak.*

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

geografiya fanlariga doir eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish hamda amaliyotga bevosita tadqiq etish, geografiya va uni o'qitish metodikasi yo'nalishlariga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish, ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish, ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish, geografiyaga doir tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo'lishi;

ilmiy tadqiqot ishining metodologik asoslari, prinsiplari va metodlarini bilishi, ilmiy tadqiqot ishi yuzasidan ishlab chiqilgan dastur asosida mustaqil tadqiqotlar olib bora olishi, ilmiy tadqiqotning dolzarbligi, nazariy va amaliy ahamiyatini asoslay olishi, tadqiqotning natijalarini maqola yoki tezis ko'rinishida taqdim eta olishi, ilmiy-texnik tendensiyalar va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni aniqlay bilishi va ularning aniq yechimlarini taklif eta olishi hamda kutilayotgan natijalarni baholay olishi, turli xil ma'lumotlar manbalarini tahlil qilish va foydalanish, mantiqiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lishi; diskussiya va munozaralar olib borish, nazariy va metodologik bilimlardan amaliyotda foydalana bilish, tanlagan mutaxassisligi bo'yicha axborot manbalari, ilmiy va boshqa turdagi manbalar bilan ishlay olish, magistratura mutaxassisligi bo'yicha namunaviy modellar, obyekt va jarayonlarni tadqiq qilish usullarini o'rganish, tajriba tadqiqotlarining ilmiy texnik ta'minotini o'rganish, tajriba-tadqiqotlar natijalarini qayta ishlash, tahlil qilish, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak kerak.

#### **Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:**

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallash, ta'lim oluvchilar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish;

talabalarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;

globallashtirish sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

mahallalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha individual suhbat o'tkazish;

milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarini ochib berish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

ta'lim-tarbiya jarayoni qatnashchilari va ijodiy jamoani boshqarish, ishlab

chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish;

ilmiy va o'quv faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

zamonaviy axborot-texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni takomillashtirish;

tashkilotning ichki hujjat aylanish tizimining ishlashi to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish, turli ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish va tashkiliy loyihalar ishtirokchilariga axborot ta'minotini yaratish ko'nikmalariga ega bo'lish;

tashkilotni rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalarni amalga oshirishda (korxonalar, davlat yoki mahalliy boshqaruv idorasi) tashqi aloqalarni kengaytirish va tajriba almashish uchun zarur ma'lumotlar to'plash tizimlaridan foydalangan holda sheriklar bilan munosabatlarni tashkil etish va qo'llab-quvvatlash;

ishlab chiqarish jarayonida biznes-rejalarni ishlab chiqish va biznes jarayonlarini tashkilotlarning amaliy faoliyatida qayta tashkil etish usullaridan foydalanish;

xorijiy hamkorlar bilan yozishmalar olib borish, elektron hujjatlar yuritish

## **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

shaxsiy o'sishga intilishni shakllantirish va ob'ektiv baholash, shuningdek, ta'lim oluvchilarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish ko'nikmalariga qobiliyatlilik.

ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda ijtimoiy, gumanitar va iqtisodiy fanlarning asosiy qoidalari va metodlaridan foydalanishga qobiliyatlilik.

ona tilida o'z fikrlarini tizimli va erkin bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash, ommaviy nutq so'zlash uchun ona tili va chet tillaridan birida yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini egallaganlik.

-muloqotga kirishish va maxsus matnlarni tushunish uchun chet tillardagi bilimlardan foydalanish.

axborotni olish, saqlash va qayta ishlash metod, usul va vositalaridan foydalanish; global kompyuter tarmoqlar bilan ishlash ko'nikmalariga egalik.

ijtimoiy o'zaro harakatga kirishishda ta'lim ishtirokchilarining etnomadaniy o'ziga xosliklarini hisobga olish.

axloqiy me'yorlar va ma'naviy madaniyatni o'zlashtirish.

ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ilmiy bilish yutuqlariga erishish tamoyillarini anglash;

gigiyena, mehnat muhofazasi va tashqi ta'sirlardan himoya qilish qoidalari talablariga muvofiq, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishga qobiliyatlilik.

o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish;  
turli yosh davrlarida insonning xulq-atvori va faoliyatini boshqarishning o'ziga xosliklari, psixik va psixofiziologik rivojlanishning maxsus qonuniyatlari hamda individual o'ziga xosliklarini hisobga olish vositalaridan foydalanish qobiliyatiga egalik;

psixologik va pedagogik tadqiqotlarning miqdor va sifat metodlarini egallaganlik;

o'qitish, tarbiya, rivojlanishning turli nazariyalariga doir bilimlar, ta'limning turli bosqichlarida o'qitish dasturlaridan foydalanish qobiliyati;

ta'lim jarayoni sub'ektlarining birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo o'zaro harakatini tashkil etish usullarini egallaganlik;

pedagogik kasbining yuksak ijtimoiy ahamiyat kasb etishini tushunish, kasbiy etika tamoyillariga rioya qilish;

jamiyatning ijtimoiy-madaniy tuzilmasining o'ziga xosliklari, shuningdek, milliy tarbiyaning qonuniyat va tamoyillarini hisobga olgan holda, ko'pmadaniyatlilik muhitida kasbiy faoliyatni tashkil etish usullarini egallash;

kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo va vakolatli tuzilmalarning birgalikdagi faoliyatida ishtirok etishga qobiliyatlilik;

kasbiy faoliyatda bola huquqlari to'g'risidagi asosiy xalqaro va milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanish qobiliyati;

tanqidiy fikrlash metodikasini o'zlashtirganlik;

ta'lim oluvchilarga o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga imkon beradigan natijaviylik va mobillikka yo'naltirilgan o'qitishga qobiliyatlilik.

### **3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Ilmiy amaliyot - oliy ta'lim muassalaridagi ta'lim jarayonlarini tashkillashtirish bilan tanishish, ya'ni bo'limlar strukturasi va vazifalari, o'quv jarayonini tashkil qilishdagi va o'quv jarayonining direktiv va normativ hujjatlari, pedagogik faoliyatning boshlang'ich mahorat ko'nikmalarini o'rganish, ta'lim muassalarida o'tkaziladigan ilmiy ishlarda qatnashish, tanlab olingan fan bo'yicha amaliyot davrida vazifalarni bajarish (rahbar nazorati ostida), shu fanni o'tish bo'yicha uslubiy reja ishlab chiqishdan iboratdir.

#### 4. Fanlar katalogining tuzilishi

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestr
1.00		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>900</b>	<b>30</b>	
1.01	ITM 1105	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	150	5	1
1.02	YO'TSTTI 1205	Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lim tizimidagi islohotlar	150	5	2
1.03	GNT 1105	Geografiya nazariyasi va tarixi	150	5	1
1.04	OPTMFO'M 1305	Oliy ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi	150	5	3
1.05	ZGAM 1305	Zamonaviy geografiyaning asosiy muammolari	150	5	3
1.06	HICHM 1405	Hududiy ishlab chiqarish majmualari	150	5	4
		<b>Jami</b>	<b>900</b>		
2.00		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>900</b>	<b>30</b>	<b>1-4</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	900	30	
	<b>Kvalifikatsiya</b>	<b>Pedagog-tadqiqotchi</b>			
3.00.		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>1-4</b>
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 54: 371.3

---

### **Tayanch so'zlar:**

Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat turi, amaliyot, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi

**Kelishuv varag'i**

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari**

**ISHLAB CHIQILGAN:**

**Nizomiy nomidagi Toshket davlat pedagogika universiteti**

Rektor *A. Kirgizbayev* **A. Kirgizbayev**

2024-yil «07» \_\_\_\_\_



**KELISHILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tatqiqotlari markazi

Mirzo Ulug'bek nomidagi  
O'zbekiston Milliy universiteti

Direktor *M. Boltabayev* **M. Boltabayev**

Rektor *I. Madjidov* **I. Madjidov**

2024-yil «01» 08 \_\_\_\_\_

2024-yil «01» 07 \_\_\_\_\_



Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta'limi  
vazirligi huzuridagi  
Respublika ta'lim markazi

Rektor *G. Muxamedov* **G. Muxamedov**

Direktor *Sh. Xudaykulov* **Sh. Xudaykulov**

2024-yil «20» 07 \_\_\_\_\_

2024-yil «20» 07 \_\_\_\_\_

